

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PHD.05/04.03.2022.QX.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI» MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI BUXORO TABIIY RESURSLARNI
BOSHQARISH INSTITUTI**

ADIZOV SHUHRAT BAFOYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARINING YER MAYDONLARINI
OPTIMALLASHTIRISH VA HUDUDINI TASHKIL ETISH
(Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UDK: 631.115. (575.146)(043.3)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Adizov Shuhrat Bafoevich

Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish va hududini tashkil etish (Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida)..... 3

Адизов Шухрат Бафоевич

Оптимизация земельных площадей и организация территорий фермерских хозяйств (на примере Вобкентского района Бухарской области)..... 21

Adizov Shukhrat Bafoevich

Optimization of farm land areas and organization of the territory (On the example of the Vobkent district of the Bukhara region)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
PHD.05/04.03.2022.QX.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI» MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI BUXORO TABIIY RESURSLARNI
BOSHQARISH INSTITUTI**

ADIZOV SHUHRAT BAFOYEVICH

**FERMER XO‘JALIKLARINING YER MAYDONLARINI
OPTIMALLASHTIRISH VA HUDUDINI TASHKIL ETISH
(Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Qx1052 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamidov Fayzullo Ramazonovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Safarov Eshqobil Yuldashovich
texnika fanlari doktori, professor
G'ofirov Azim Jumayevich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O'zdavyerloyiha” davlat-ilmiy loyihalash instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning «14» 06 2023 yil soat 16 30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz)


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (548816 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «01» 06 kuni tarqatildi.

(2023 yil «01» 06 dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi).



D.A.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., dotsent



N.I.Shadiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., katta ilmiy xodim



U.Norqulov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida aholi sonining o'sishi natijasida kishi boshiga yer resurslarining kamayib borayotganligini inobatga olsak, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradigan tizimlarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'ylab 608 milliondan ortiq oilaviy fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular jahon qishloq xo'jaligi yerlarining 70-80 foizini egallaydi va dunyodagi oziq-ovqatning 80 foizga yaqinini ishlab chiqaradi¹. Bu borada sug'oriladigan hududlarda yerdan oqilona foydalanishni tashkil etish usullari va yondashuvlarni inobatga olgan holda maxsus yer tuzish ishlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, respublikada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida asosiy sub'yekt hisoblangan fermer xo'jaliklari yer maydonlardan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardan ekin maydonlarini tashkil etgan holda ulardan yuqori darajada foydalanish imkonini beradigan yangi ilmiy texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda fermer xo'jaliklari mavjud hududlarni joylashish mintaqalari va ulardagi tabiiy-iqtisodiy sharoitlarini, reliefi va joy nishabligining ko'rinishlarini inobatga olgan holda har bir yer uchastkasidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish va maxsus yer tuzish loyihalarida fermer xo'jaliklarini tashkil etish uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida yerlardan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish, mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini va yerlardan samarali foydalanishga bo'lgan munosabatini, yerdan foydalanish madaniyatini o'zgartirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari hududlarini oqilona tashkil etish bo'yicha mavjud usullarni tanqidiy tahlil qilish va baho berish orqali, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining, «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash»ga yo'naltirilgan III-bobining 30-maqsadida «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish», 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son «Qishloq xo'jaligiga

¹ <https://www.fao.org/news/story/en/item/1395127/icode/>

mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, 2021 yil 24 noyabrda Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 709-sonli qarori, 2022 yil 8 iyuldagi Vazirlar Mahkamasining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 373-sonli qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida va respublikamizda yer tuzish, loyihalash, yer monitoringi va geoaxborot tizimlari yo'nalishlarida, yer resurslaridan, jumladan sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, muhofaza qilish hamda boshqarish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari respublika va xorijlik olimlar S.A.Udachin, I.G.Tyunen, A.N.Rakitnikov, A.M.Nosonov, B.G.Kryuchkov, A.V.Chayanov, K.I.Ivanov, S.N.Volkov, V.N.Xlyustun, V.V.Vershinin, V.F.Bashmachnikov, A.P.Astashkin, V.P.Proshlyakov, G.A.Talipov, U.P.Umurzakov, S.Avezboev, A.S.Altiev, Q.Raxmonov, A.R.Babajonov, R.A.Turayev, M.I.Ruzmetov, G'T.Parpiyev, F.R.Hamidov, S.B.Ro'ziboyev, B.N.Inamov va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Ushbu olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun mo'ljallangan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, sohani rivojlantirish xususiyatlari tadqiq etilgan. Biroq, yer tuzish loyihalari tarkibida fermer xo'jaliklari hududini oqilona tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi O'RQ-662-II-son «Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrir)»² Qonuni asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 yanvardagi «Fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida»³gi 22-son qarorlari asosida ishlangan 2020-2022 yillarda «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining «Buxoro viloyatida yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uslublarini

² O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi O'RQ-662-II-son "Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrir)" Qonuni

³ Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 yanvarda 22-sonli "Fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risida" qarori.

takomillashtirish asoslari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni tashkil etishda fermer xo'jaliklari hududini maqbullashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy texnologiyalar asosida fermer xo'jaliklarining dalasi elektron pasportini onlayn yuritishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot yaratish;

fermer xo'jaligi yer maydoni o'lchami bilan unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi ko'p omilli regressiyani aniqlash;

fermer xo'jaligining yer tuzish loyihasini ishlash orqali maqbul hudud tavsiyasini ishlab chiqish;

xo'jalikda aholi bandligi va qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish samaradorligini oshirish maqsadida «SMART LAND» android dasturi yaratish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi fermer xo'jaliklari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib fermer xo'jaliklari hududini tashkil etishda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil qilish, statistik hamda korrelyatsion regressiya, prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy texnologiyalar asosida fermer xo'jaliklarining dalasi elektron pasportini onlayn yuritishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot yaratilgan. Ushbu dasturiy ta'minot yordamida to'plangan ma'lumotlar yordamida fermer xo'jaligi faoliyatini rejalashtirish va yerlardan samarali foydalanishni bashoratlash imkoniyati yaratilgan;

fermer xo'jaligi yer maydoni o'lchami bilan unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi ko'p omilli regressiya aniqlangan. Hisoblangan R^2 determinatsiya koeffitsiyentining 0,99 ga teng bo'lishi natijaviy ko'rsatkichning kiritilgan omillar bilan kuchli bog'langanligini ko'rsatib, qolgan 0,01 ulush esa hisoblash jadvaliga kiritilmagan hamda marjinal omillarga bog'liqligi aniqlangan;

xo'jalikning yer tuzish loyihasi tarkibida fermer xo'jaligi hududini tashkil etish uslubiyati takomillashtirilgan, natijada yer maydonlari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklarining hududida yer tuzish loyihalarining tarkibiy qismlari va elementlarini joylashtirish orqali yerdan samarali foydalanishni tashkil etish imkoniyati yaratilgan;

xo'jalikda mavjud aholini ish bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik ekinlari agrotexnologiyasini to'g'ri tashkil etish va ularni yetishtirish samaradorligini oshirish maqsadida «SMART LAND» android dasturi «Java» tilida yaratilgan. Uning yordamida ekinlarni ekish va parvarishlash, tayyor bo'lgan mahsulotdan olinadigan foyda kabi imkoniyatlar yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tumanda mavjud fermer xo'jaliklari ma'lumotlarini jamlash hamda ulardan erkin foydalanish maqsadida fermer xo'jaligi dalasini elektron pasporti (smart farmer) dasturiy ta'minoti yaratilgan;

hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda fermer xo'jaliklarining optimal yer maydonlari o'lchamlari aniqlangan va yer tuzish loyihasi ishlab chiqilgan;

xo'jalikning yer tuzish loyihasi tarkibida fermer xo'jaligi hududini tashkil etish uslubiyati takomillashtirilgan;

hududda ekinlarni parvarishlash va aholi bandligini oshirish maqsadida «SMART LAND» android dasturi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan ilmiy tadqiqot natijalarini ilmiy loyihalar doirasida bajarilganligi, tajriba natijalarining statistik tahlildan o'tkazilganligi, olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalarini nufuzli Respublika va xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda olingan asosiy natijalar va xulosalardan yer tuzish loyihalarini yaratishda fermer xo'jaliklari hududlarini tashkil etish uslubiyatini takomillashtirilganligi, xo'jalikning o'lchamini to'g'ri tanlash, hudud tabiiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ekin turini tanlash, hududda aholi bandligini ta'minlashning omillarini o'rganish, fermer xo'jaligni ma'lumotlarini umumiy holda shakllantirish, maydon va yerdan foydalanish samaradorligini o'rtasidagi bog'lanish hamda fermer xo'jaligi hududini tashkil etishga doir tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishlarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, fermer xo'jaliklarining dalasi elektron pasportini onlayn yuritishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot (smart farmer) yaratilgan, fermer xo'jaligi yer maydoni o'lchami bilan unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi ko'p omilli regressiya aniqlangan, xo'jalikda aholi bandligi va qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish samaradorligini oshirish maqsadida «SMART LAND» android dasturi yaratilgan hamda «Xo'jalikning yer tuzish loyihasi tarkibida fermer xo'jaligi hududini tashkil etish uslubiyatiga oid» tavsiyalar yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish va hududini tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalar asosida:

Zamonaviy texnologiyalar asosida fermer xo'jaliklarining dalasi elektron pasportini onlayn yuritishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot yaratilgan va ishlab chiqarishga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 27-oktyabrdagi 04/30-04/7859-sonli ma'lumotnomasi). Natijada massiv fermer xo'jaliklarining ma'lumotlarini onlayn kiritish imkoniyati yaratilgan.

Fermer xo'jaligi yer maydoni o'lchami bilan yerning unumdorligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish aniqlangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 27-oktyabrdagi 04/30-04/7859-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fermer xo'jaligi yer maydoni o'lchami o'zgarishi 38,44 % yer maydoni unumdorligi miqdoriga va 61,56 % boshqa omillarga bog'liq ekanligini isbotlangan.

Xo‘jalikda aholi bandligi va qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish samaradorligini oshirish maqsadida «SMART LAND» android dasturi yaratilgan va ishlab chiqarishga joriy qilingan. (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 27-oktyabrdagi 04/30-04/7859-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ekinlarni yetishtirish va parvarishlashda kerakli agrotexnik tadbirlarni navbatma-navbat ma’lum bir grafik asosida joylashtirish imkoniyati yaratilgan

Xo‘jalikning yer tuzish loyihasi tarkibida fermer xo‘jaligi hududini tashkil etish uslubiyati takomillashtirilgan va ishlab chiqarishga joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 27-oktyabrdagi 04/30-04/7859-sonli ma’lumotnomasi). Natijada xo‘jalikning yer tuzish loyihasi tarkibida fermer xo‘jaligi hududini tashkil etishga oid tavsiyalar sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida ko‘rib chiqilgan va ijobiy baholangan, jumladan 2 xalqaro va 3 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 1 ta tavsiya va 9 ilmiy ish va 1 ta dasturiy ta‘minotga mualliflik guvohnomasi olingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning «**Fermer xo‘jaliklarini tashkil etishning nazariy-asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi uch bandga bo‘lingan bo‘lib, birinchi bandi «Fermer xo‘jaliklarini tashkil etishining tashkiliy-huquqiy jihatlari» deb nomlanib, unda Respublikamizda fermer xo‘jaliklarining ilk tashkil etilishidan tortib, toki shu kungacha bo‘lgan jarayon hamda o‘zgarishlarni o‘zida jamlagan ma’lumot va tahlillar o‘z aksini topgan.

Ikkinchi bandi «Fermer xo‘jaligi yer maydonlari o‘lchamlarini maqbullashtirish (optimallashtirish) uslubiyati» deb nomlanib, unda fermer

xo'jaligining yer maydoni bilan bog'liq bo'lgan masalalar, ya'ni uni maqbullashtirish usullari, jarayonlari va qolaversa maqbullashtirish jarayonidagi tadbirlar hamda shartnoma intizomining buzilishiga oid bo'lgan muhim ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Uchinchi bandi «Fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liq xorijiy davlatlar tajribasi» deb nomlanib, bugungi kunda fermer xo'jaliklari rivojlanib borayotgan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilindi va O'zbekistondagi fermer xo'jaliklari bilan taqqoslandi va natijada AQSh, Rossiya, Xitoy va yevropa mamlakatlarining(davlat) faoliyatini taklif sifatida qo'llash ilgari surilgan.

Bobning so'ngida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi sub'yektlar doirasini belgilash, faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy tajribalar asosida o'z faoliyatini olib borayotgan va rivojlangan fermer xo'jaliklari yo'nalishlarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi xulosa qilingan.


Dissertatsiyaning «**Buxoro viloyatida fermer xo'jaliklarini tashkil etishning hozirgi holati**» deb nomlangan ikkinchi bobida hudud to'g'risida umumiy ma'lumot, tabiiy-iqlim va gidrogeologik sharoitlari, Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi fermer xo'jaliklarining faoliyatini ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha tahlili va fermer xo'jaligi yer maydonlari o'lchamlarini maqbullashtirish (optimallashtirish) masalalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Jumladan, Vobkent tumani Buxoro viloyatining janubiy-g'arbida joylashgan tuman hisoblanib, yer maydoni 29 ming gektar. Tuman joylashgan hududning iqlimi keskin kontinental bo'lib, issiq va quruq, uzoq muddat davom etadigan yozi va sovuq qish fasli bilan tavsiflanadi. Iqlimning kontinentalligi yil fasllari va kun davomida havo haroratining keskin o'zgarishida ham namoyon bo'ladi. Tuman hududidagi sug'oriladigan yer maydonlari subtropik cho'l zonasi, prolyuvial-delyuvial (allyuvial) yotqiziqlardan tashkil topgan. Zarafshon tuproq iqlim okrugi, Buxoro-Qorako'l tuproq iqlim tumanida tarqalib turli litologik, gidrogeologik va tuproq-iqlim sharoitlarida rivojlangan. Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori katta oraliqda tebranib 80–120 mmni tashkil etadi, uning maksimal miqdori qish bahor oylarida to'g'ri keladi, yoz oylarida yog'inlar deyarli bo'lmaydi. Yog'inlar miqdorining kam bo'lishi va yoz oylaridagi yuqori harorat tuproqdan yuqori bug'lanishni sodir etadi. Tumanning relyefi asosan tekisliklardan iborat. Ekin yerlarining asosiy qismi paxta va g'alla maydonlari tashkil qiladi. Xo'jalik hududida murakkab geologik, geomorfologik-litologik, tuproq-iqlim sharoitlari regionda o'ta murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat yer usti va yer osti suvlari rejimi va balansi ko'rsatkichlarida o'z aksini topgan. Vobkent tumanining yer maydonlari bo'yicha 2017-2022 yillardagi taqsimlanishi keltirilgan. Undagi ma'lumotlarga ko'ra tumanda: qishloq xo'jaligi ekin yerlar 18865 gektar (48%), ko'p yillik daraxtzorlar 1736 gektar (4%), yaylovlar 5079 gektar (13%) tashkil etadi(1-jadval).

Vobkent tumani jami yer maydonlarining 2017 - 2022 yillar oralig'ida taqsimlanishi* (gektar hisobida)

T/r	Yer turlari	2017 y 01.01	2018 y 01.01	2019 y 01.01	2020 y 01.01	2021 y 01.01	2022 y 01.01	2017 y- 2022 y. 01.01 farqi
1	Yer egalari va yerdan foydalanuvchilari soni	1605	1685	1693	1285	1262	1304	-301
2	Ekin yerlar	18525	18464	18464	18865	18865	18865	+340
3	Ko'p yillik daraxtzorlar	1622	1683	1683	1736	1736	1736	+114
4	Bo'z yerlar	66	66	66	65	65	65	+0
5	Yaylovlar	4965	4965	4965	5079	5079	5079	+114
6	Tomorqa yerlari	5814	5814	5814	5360	5360	5360	-454
7	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	97	97	97	105	105	105	+8
8	Jami o'rmonzorlar	70	70	70	53	53	53	-17
9	Jami qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar	8287	8288	8288	8183	8183	8183	-104
Jami (2-9 grafalar)		39446	39447	39447	39446	39446	39446	+0

* Kadastr agentligi Buxoro viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



1-rasm. Qishloq xo'jalik yer turlari tarkibidagi o'zgarishlar (ga hisobida).

Vobkent tumanida qishloq xo'jaligi yer turlari tarkibida 2017-2022 yillar oraliqlarida ro'y bergan o'zgarishlar quyidagi 1-rasmda keltirilgan. Viloyatda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlilini bitta shartli massiv hududida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarini tashkil etish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun dissertatsiya rejasida belgilangan loyiha ob'yekti sifatida Vobkent tumanidagi Al Buxoriy massivi tanlab olindi.

Buxoro viloyatining Vobkent tumani va Al Buxoriy massivi hududining
mavjud yer turlari tarkibi va nisbati

Ko'rsatkichlar	Jami maydon, ga	Shu jumladan q.x.yer turlari, ga	Shu jumladan, ga					
			haydalma yer		bo'z yer	yaylovlar	ko'p yillik daraxtlar	
			sug'ori ladigan	lalmi			sug'ori ladigan	lalmi
Tuman bo'yicha								
maydon, ga	39446	25745	18865	0	65	5079	1736	0
umumiy maydonga nisbatan salmog'i, %	100,0	65,27	47,82	0	0,16	15,19	5,2	0
Massiv bo'yicha								
maydon, ga	1359,84	1176,26	950,93	0	0	199,99	89,56	0
umumiy maydonga nisbatan salmog'i, %	100,0	86,50	69,93	0	0	14,72	6,59	0

Massivda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari kesimida ekin maydonlari tarkibi, ularning hosildorligi, dehqonchilik mahsulotlari hajmi, bog'lar va uzumzorlar maydoni va hosildorligi, mahsulotlar hajmi, qishloq xo'jalik(chorva) hayvonlarining turlari, soni, mahsuldorligi, chorvachilik hajmi o'rganilib, tahlil qilingan. Al Buxoriy nomli massiv hududida 19 ta fermer xo'jaliklari va 5 ta MChJ faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Massiv hududida fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydoni umumiy maydonning 79.48%i hamda MChJlarniki 3.16% tashkil etadi. Fermer xo'jaliklarining 14 tasi paxtachilik–g'allachilik yo'nalishiga, 3 tasi chorvachilik yo'nalishiga, 2 tasi bog'dorchilik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan. Fermer xo'jaliklarining ixtisoslik bo'yicha o'rtacha yer maydonlari mos ravishda 68,85; 32,66; 15,26 gektarni tashkil etadi. Massiv hududida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari yer maydonlarini birlashtirish holati tahlil qilinganda ularga yer maydonlari birlashtirilayotganda ishlab chiqarish ixtisosligi, mavjud ishchi kuchi, texnikasi va pul mablag'lari hisobga olinmaganligi aniqlandi.

Massiv hududida fermer xo'jaliklarini joylashtirish. Ushbu loyihaviy tarkibiy qism bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun hududda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining amalda joylashuvi, ishlab chiqarish yo'nalishlari va birlashtirilgan yer maydonlarining miqdor va sifat tavsiflari o'rganilib chiqilgan (3-jadval).

Loyihaviy fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlari o‘lchamlari

Loyiha №	Umumiy maydon	Haydalma yerlar
1-Loyiha	175,37	133,5
2-Loyiha	161,65	128,8
3-Loyiha	139,97	114
4-Loyiha	156,38	124,2
5-Loyiha	71,87	52,17
6-Loyiha	101,52	83,36
7-Loyiha	93,06	65,18
8-Loyiha	96,66	60,82
9-Loyiha	191,69	143,1
Jami	1188,17	905,05

* Muallif izlanishlari asosida ishlab chiqilgan

Ko‘pchilik mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklari yerlardan samarali foydalanishni tashkil qilish uchun birinchi navbatda ularga optimal yer maydonlari birlashtirilishi talab qilinadi. S.Avezboyev, S.N.Volkov va bir qator mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, optimal maydon deb shunday maydon qabul qilinishi kerakki, unda boshqarish, ishlab chiqarish xarajatlari yo‘l qo‘yarlilik darajada bo‘lishi, xo‘jalikning sohalari muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur yer turlari bilan ta‘minlanishi kerak.

Doimiy murakkablashib boruvchi iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish usullarini yaratish va rivojlantirish zarurligiga olib kelmoqda. Zamonaviy fanlar o‘z tadqiqotlarida matematik va statistik apparatlarni qo‘llashni kengaytirmoqda. Amaliyotda miqdoriy tahlil va modellashtirish qo‘llanilishi keng tarqaldi.

Ishlab chiqarish funksiyalari orqali modellashtirish jarayoni bir necha bosqichdan iboratdir:

Ishlab chiqarishni iqtisodiy tahlil qilish, erksiz o‘zgaruvchilarni va unga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash;

Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash;

O‘zgaruvchilar orasidagi matematik bog‘lanish shaklini aniqlash;

Iqtisodiy - statistik modeldagi sonli parametrlarni aniqlash;

Iqtisodiy - statistik modelning o‘rganilayotgan jarayonga mos kelish darajasini aniqlash;

Modelning iqtisodiy interpretatsiyasi, aniq yerdan foydalanish masalasini yechishda modelni qo‘llashni tahlil qilish.

Tadqiqot ishi bo‘yicha Vobkent tumanidagi Al Buxoriy massividagi mavjud 19 ta fermer xo‘jaligi yer maydonlari va ularga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanish hisoblab chiqildi.

Fermer xo‘jaligi yer maydoni o‘lchamiga ta‘sir qiluvchi omillar orqali regressiya tahlilini amalga oshirish uchun omillar miqdorlari

Fermer xo‘jaliklarining yer maydoni o‘lcham, Y	Ishchi kuchi X ₁	Ball boniteti X ₂	Ishlov beradigan texnikasi X ₃	Sug‘orish uchun suv ta‘minoti (%) X ₄	Pul mablag‘lari X ₅	Aylanma fondlari, mln.sum, X ₆	Maydon tarkibida q/x yerlari, ga X ₇
44,14	20	52	2	50	40	230	39,73
68,67	22	56	2	50	59	310	63,71
74,44	25	61	2	50	67	517	58,15
183,44	40	55	4	100	159	489	160,75
81,05	30	59	4	100	78	421	76,25
53,46	25	62	5	100	46	252	48,77
45,2	20	63	2	100	38	234	41,04
45,56	26	57	2	100	42	218	41,97
47,81	20	50	2	100	39	253	44,4
37,74	18	62	3	100	23	198	34,19
88,96	30	62	4	100	73	513	81,89
35,89	15	58	1	100	25	183	33,68
58,62	18	59	2	100	56	241	52,95
22,15	10	39	2	100	29	356	19,56
17,21	5	46	0	100	18	249	14,83
90,21	35	57	4	100	73	650	61,12
67,27	8	63	2	100	60	389	55,5
14,87	10	64	2	100	20	159	14,73
15,64	5	44	1	100	16	184	13,87

Ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi quyidagi muhim omillar asos qilib olindi (4-jadval): Y- fermer xo‘jaliklarining yer maydoni o‘lchami;

X₁- ishchilar soni, (kishi) ;

X₂- yerlarning unumdorligi (ball);

X₃- Ishlov beradigan texnikasi (dona);

X₄-suv ta‘minoti, (%);

X₅- fermer xo‘jaliklarining pul mablag‘lari, (mln.so‘m);

X₆- aylanma fondlari, (mln.so‘m);

X₇- umumiy maydon tarkibidagi qishloq xo‘jalik yerlari, (ga).

Bu omillar quyidagi ma'lumotlaridan foydalanib, ko‘p omilli regressiya tahlilini amalga oshiramiz:

Yuqoridagi omillar qiymatlari asosida, yer maydoni o‘lchamini va unga ta'sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalovchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarining quyidagi korrelyatsiya matrisasi EXCEL dasturi orqali hosil qilindi. Natijaviy ko‘rsatkichga ta'sir qiluvchi omillar bilan ta‘sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘lanish darajalari juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matrisasi hosil qilindi (5-jadval).

Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillar bilan ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'lanish darajalari juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matrissasi

	<i>Ustun 1</i>	<i>Ustun 2</i>	<i>Ustun 3</i>	<i>Ustun 4</i>	<i>Ustun 5</i>	<i>Ustun 6</i>	<i>Ustun 7</i>
Ustun1	1						
Ustun 2	0,8208098	1					
Ustun 3	0,2669454	0,3614481	1				
Ustun 4	-0,132904	-0,148896	-0,141485	1			
Ustun 5	-0,05672	-0,100765	-0,004406	0,086881	1		
Ustun 6	0,9890539	0,791155	0,2210879	-0,1375	-0,064192	1	
Ustun 7	0,6997329	0,6401804	0,108882	0,172658	-0,10822	0,6997745	1



2-rasm. Bir omilli trend modeli


Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki fermer xo'jaliklarining yer maydoni o'lchami va unga ta'sir etuvchi omillar asosida regression model tuzish uchun multikollinearlik muammosi mavjud emas ekan. Buni e'tiborga olib, EXCEL dasturida ko'p omilli chiziqli regressiya modelini yuqoridagi ma'lumotlar asosida amalga oshirganda quyidagi modelni hosil qilindi:

$$Y = -15,59 + 0,209 X_1 + 0,127X_2 - 1,26X_3 + 0,02X_4 + 0,34X_5 + 0,02X_6 + 0,72 X_7$$

X_1 - ishchilar sonini 1 birlikka oshirganda Y- fermer xo'jaliklarining yer maydoni o'lchamini 0,209 ga oshirish kerak ekan, **yerlarning unumdorligi (ball)** 1 birlikka oshganda, Y- yer maydoni o'lchamini 0,122 birlikka oshirish kerak, X_3 - ishlov beradigan texnikasi teskari ta'sir ko'rsatayapti, X_4 -suv ta'minoti bir birlikka o'zgarganda 0,02 oshirish kerak, X_5 - fermer xo'jaliklarining pul mablag'lari 1 birlikka oshganda Y 0,34 ga oshar ekan, X_6 - aylanma fondlari 1 birlikka oshganda Y 0,02ga oshar ekan, X_7 - umumiy maydon tarkibidagi qishloq xo'jalik yerlarini 1 birlikka oshganda Y 0,72 ga oshar ekan.

Umuman, qurilgan model asosida ishlab chiqilgan natijalarning ko'rsatishicha, yer maydoni o'lchamiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili bo'yicha F- Fisher mezonining hisoblangan qiymati $F_{his} = 202,7$ shuningdek, erkinlik darajalari sur'at bo'yicha $\gamma_1 = 8$ va maxraj bo'yicha $\gamma_2 = 19 - 7 - 1 = 11$ ga teng bo'lganda, Fisher mezonining qiymati, ya'ni mohiyatlik darajasi $p = 0,98$ uchun $F_{jad.} = 3,46$. Demak, qo'llanilgan ko'p omilli model adekvat hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Fermer xo'jaliklarini tashkil etish orqali yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbollari**» deb nomlangan bo'lib, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida fermer xo'jaligi dala pasportini shakllantirish, hududda aholi bandligini ta'minlashda fermer xo'jaliklari faoliyati ustuvorligini yaratish masalalarini asoslash va fermer xo'jaliklari yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbollari kabi qismlardan tashkil topgan.



2-rasm. Elektron dala pasportining sayt holatidagi ko'rinishi.
(<http://smart-farmer.uz/>)⁴

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatdiki bunday tizim sifatida avtomatlashgan tizimga keltirilgan dala pasportini bemalol qo'llash mumkin. Bunda avtomatlashgan tizim ikkita asosiy vazifani amalga oshirishi kerak:

Birinchi, ishlab chiqarish sharoitlarida har bir dalaning agroekologik tavsifini yorituvchi ma'lumotlarni elektron bazasini yaratish. Uni muhofaza qilishni va qisqa vaqt ichida ularni tahlil qilish va to'ldirish uchun sharoitlarni tashkil qilish.

Ikkinchi, ma'lumotlarni umumlashtirish, ilmiy nuqtai nazar va tajriba asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini optimal rejalashtirish. Bajarilgan ishlar natijasini foydalanuvchilarga barcha uchun foydalanishga qulay bo'lgan shaklda taqdim etish.

Bozor infratuzilmasi ish bilan bandlik hajmining o'sishida muhim rol o'ynaydi. Agar biror hududda bunday infratuzilma bo'lmasa, unda bu hududda tadbirkorlik ham rivojlanmaydi, ish bilan bandlik hajmi ham oshmaydi. Buning natijasida hududlararo ish bilan bandlik tarkibi ham takomillashmagan va bir tomonlama shakllangan bo'ladi. Demak, har bir hududda bozor infratuzilmasini bir

⁴ Dastur muallif tomonidan yaratilgan.

xil ravishda rivojlantirish lozim. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida qishloq joylarda norasmiy ish bilan bandlik rasmiy ish bilan bandlikga nisbatan 1,8 marta yuqori va o'sish tendensiyasiga ega.

Ilmiy tadqiqot ishimizning ob'yekti hisoblangan Vobkent tumanidagi Al Buxoriy massivida mavjud bo'lgan aholi yashash joylaridagi ishga yaroqli aholining qishloq xo'jaligida ish bilan ta'minlanish darajasiga oid ma'lumotlar 5-jadvalda keltirilgan⁵.

6-jadval

MFYlar hududida aholi soni bo'yicha ma'lumot

T/r	Aholi yashash joyi nomi	Aholi soni		Fermer xo'jaligi tartib soni	Mayd oni, gektar	Talab qilinadigan ishchi resurslari (1 ta ishchiga 4 ga hisobida)	Ish bilan ta'minlanmag an aholi soni
		jami	Shu jumlad an mehnatga yaroqli				
1	Latifsobungar MFY	4521	2658	2,3,4 va 7-raqamli loyihalar	432,18	108	2550
2	Niyozxo'ja MFY	2557	1490	1,6 va 8-raqamli loyihalar	277,68	70	1420
3	Shakarkent MFY	4374	2587	5 va 9-raqamli loyihalar	195,27	49	2538
	Jami	11452	6730		905,13	227	6508
	% hisobida		100			3,4	96,6

Tadqiqotlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish jarayonida kerakli tavsiyalarni o'z ichiga jamlagan «**SMART LAND**» android dasturiy ta'minoti yaratildi. Ushbu dasturiy ta'minotni yaratishdan ko'zlangan maqsad, ekinlarni yetishtirish va parvarishlashda kerakli agrotexnik tadbirlarni navbatma navbat ma'lum bir grafik asosida bizga eslatib turadi. Bundan tashqari, aholi yer maydonlari o'lchamlari va aholi soniga mutanosib ravishda ekiladigan ekinlarni joylashtirish imkoniyati ham yaratilgan.

Sabzavotlarni joylashtirish bo'limida bahorgi va kuzgi sabzavot ekinlarini ehtiyoj asosida (mahsulot iste'molidan kelib chiqqan holda foydalanuvchiga maydon ajratish taklif qilinadi). Taklif qilinayotgan maydonda bir vaqtning o'zida 2 va undan ortiq ekinni joylashtirish jarayonida ularni nisbat asosida bo'lish loyihasi ham mavjud.

Yer maydonida ekiladigan ekinlar agrotexnikasi bo'limida ham bahorgi va kuzgi sabzavotlarning agrotexnik xarakteristikasi: ekilishi, parvarishi, kerakli harorat miqdori, o'g'itlash, sug'orish, zararkunandalarga qarshi kurashish va vegetatsiya davri singari ma'lumotlar joylashtirilgan.

Daromad va xarajat bo'limida esa bahorgi va kuzgi sabzavot ekinlarining ehtiyoji asosida joylashtirish loyihasidan kelib chiqib qilinadigan xarajat va olinadigan daromadni hisoblash imkoniyatlari mavjud. Narxlar online rejimda birja narxlariga bog'lab qo'yilgan. Bundan tashqari dastur muhitida 3 ta til (o'zbek, rus

⁵ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

va ingliz) da foydalanish, joylashgan hududga qarab ob-havoning avtomatik yangilanib turishi va boshqa imkoniyatlari mavjud.

Dasturiy ta'minot fermer xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida hamda aholining ijtimoiy qatlamdagi ishsizlarini ish bilan ta'minlash jarayonida asosiy parametrik omil bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda ajratilayotgan yer maydonlari ochiq auksion tamoyili asosida amalga oshirilyapti. Aholi o'ziga tegishli bo'lgan yer uchastkalaridan samarali foydalanish, daromad olish va ekinlar salmog'ini oshirishda ushbu dastur bevosita dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.



3-rasm. Dasturning umumiy ko'rinishi⁶.

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.hamroev.smartland&pli=1>)

Qishloq xo'jaligi faoliyatining hozirgi sharoitida yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish muammosi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yer resurslaridan foydalanishning umumiy talablari quyidagilardan iborat (4-rasm).

Qishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanishga qo'yilgan talablar

I. agrotexnologik talablar:

- qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish;
- qishloq xo'jalik ekinlarni yetishtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

II. ekologik talablar:

- chirindi va oziq moddalarning defitsitsiz balansini ta'minlash.


III. iqtisodiy talablar:

- mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan me'yoriy foydalanishni ta'minlash;
- barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- reproduktiv jarayonlarni ta'minlash.

IV. tashqi talablar:

- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish.

⁶ Muallif tomonidan yaratilgan



4-rasm. Qishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanishga qo'yilgan talablar⁷.

XULOSALAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi;

1. Ob'jekt bo'yicha loyihalangan fermer xo'jaliklari tarkibidagi yer turlarining mavjud tarkibidan loyihaviy tarkibga o'tish yerlarni transformatsiyalash - yerlarni bir turdan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi. Amalda qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan 29,1 gektar maydon transformatsiya qilinib, uning 11,48 gektar terakzor-pavloniya, 10,76 gektar tutzor, 0,42 gektar uzumzor, 0,61 gektar bog' va 3,88 gektar haydalma yer sifatida foydalanishga tavsiya berilgan. Buning natijasida massivda fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish koeffitsiyentini 0,73 dan 0,75 gacha ko'tarish, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydonini 2% gacha oshirish mumkinligi asoslangan. Natijada yetishtiriladigan yalpi mahsulot qiymati 6972040 ming so'mga yoki 6.2% ga oshishi isbotlangan.

2. Fermer xo'jaliklari uchun turli sharoitlarda ishlab chiqarishni yoki qishloq xo'jalik ekinlarini ekishni tashkil qilishlari uchun kerakli ma'lumotlarni yetkazib beradigan tizim kerak bo'ladi. Shu sababli bu ma'lumotlarni shakllantirish va taqdim etish maqsadida ilmiy tadqiqotlar jarayonida sayt ko'rinishidagi «smart farmer» ilovasi yaratildi.

3. Fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanishni yer tuzish yordamida tashkil etish masalari bo'yicha Al Buxoriy massivining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlari o'rganilib chiqildi va ichki yer tuzish loyihasi ishlab chiqilgan.

4. Dissertatsiya ob'ekti bo'yicha ishlangan yer tuzish loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash jarayonida xo'jalikda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaligi maydoni o'lchami va unga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Hisoblangan R^2 determinasiya koeffitsiyentining 0,99 ga teng bo'lishi

⁷ Muallif izlanishlari va tahlillari asosida ishlab chiqilgan.

natijaviy ko'rsatkichning kiritilgan omillar bilan kuchli bog'langanligini ko'rsatib, qolgan 0,01 ulush esa hisoblash jadvaliga kiritilmagan hamda marjinal omillarga bog'liqligi aniqlangan. Ushbu natijalar fermer xo'jaliklari joylashuvi uchun hamda ulardan foydalanishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

5. Ilmiy tadqiqot ishlari jarayonida ishlangan yer tuzish loyihasida Vobkent tumani Al Buxoriy massividagi fermer xo'jaliklarining yer maydoni 2 foizga (29,1 gektar) oshgan. Natijada mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligi 6,2% ga ko'tarilgan. Ko'rsatilgan maydon qishloq xo'jaligi oborotiga kirilgan taqdirda massiv yerdan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshishi isbotlangan.

6. O'zbekistonning 31 yillik mustaqil taraqqiyoti davomida fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq islohotlarni bir nechta bosqichlarga bo'lish va ularning rivojlanish tendensiyasi va qonuniyatlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish jarayonlari bilan izohlash mumkin. Biroq bu islohotlar davomida qabul qilingan qonun hujjatlarida fermer xo'jaliklarining maqomi borasida qonun chiqaruvchi organ aniq to'xtamga kelmaganligini ham ta'kidlash zarur. Kelajakda qonunchilik asosida fermer xo'jaliklari yer egaliklarini xususiylashtirish asosida foydalanish tavsiya etiladi.

7. Respublikamizda qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishi taraqqiy etgan xorijiy davlatlar tajribasi asosida har tomonlama samarali deb baholangan fermerlik faoliyatiga o'tilishi soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xorijiy tajribalar tahlili asosida quyidagi taklifni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Fermer xo'jaliklari rahbarlari kasbiy malakasini oshirishga oid talablarni aks ettirish, yosh fermerlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, fermer mutaxassislarni tayyorlashni jahon amaliyotidan kelib chiqqan holatda uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PHD.05/04.03.2022.Qx.13.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БУХАРСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ
РЕСУРСАМИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА «ТАШКЕНТСКОГО ИНСТИТУТА ИНЖЕНЕРОВ
ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

АДИЗОВ ШУХРАТ БАФОЕВИЧ

**ОПТИМИЗАЦИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ ПЛОЩАДЕЙ И ОРГАНИЗАЦИЯ
ТЕРРИТОРИЙ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ
(на примере Вобкентского района Бухарской области)**

06.01.10 - «Землеустройство, кадастр и мониторинг земель»

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/Qx1052.

Диссертация выполнена в Бухарском институте управления природными ресурсами национального исследовательского университета «Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Хамидов Файзулло Рамазонович
Доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент.

Официальные оппоненты: Сафаров Эшкobil Йулдашевич
Доктор технических наук, профессор
Гофиров Азим Жумаевич
Доктор философии по сельскохозяйственным
наукам (PhD)

Ведущая организация: Государственный научно-проектный институт
«Узгипрозем»

Защита диссертации состоится «14» 06 2023 года в 16³⁰ на заседании разового научного совета на базе Научного совета PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном аграрном университете. Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, 2. Тел.: (+99871) 260-48-00, факс: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрационный №542816). Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, 2, Тел.: (+99871) 260-48-00.

Автореферат диссертации разослан «01» 06 2023 года.

(протокол реестра №1 от «29» 06 2023 года).

Д.А.Кадирова
Председатель разового Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н., доцент



Н.И.Шадиева
Учёный секретарь разового Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н., старший
научный сотрудник

У.Норкулов
Председатель научного семинара при разовом
Научном совете по присуждению учёных
степеней, д.с.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире применение методов повышения эффективности использования имеющихся земельных ресурсов для обеспечения продовольственной безопасности и экономической стабильности занимает одно из ведущих мест. Принимая во внимание уменьшение земельных ресурсов на человека в результате роста населения мира, требуется широкое внедрение систем, позволяющих эффективно использовать имеющиеся земельные ресурсы. По данным ФАО, в мире насчитывается более 608 млн. семейных фермерских хозяйств, на долю которых приходится 70-80% мировых сельскохозяйственных земель и производства около 80% мирового продовольствия¹. Здесь особое внимание уделяется проведению специальных землеустроительных работ с учетом подходов и методов организации рационального использования земель на орошаемых территориях. С этой точки зрения, организация эффективного и рационального использования земельных участков фермерских хозяйств, являющихся основным субъектом сельскохозяйственного производства в республике имеет важное значение.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений, позволяющих обеспечить высокий уровень использования земель, пригодных для сельского хозяйства посредством создания на их базе посевных площадей. В данном контексте значимы исследования, которые направлены на совершенствование методов эффективного использования фермерскими хозяйствами каждого земельного участка с учетом его места расположения и природно-экономических условий, рельефа и типа уклона местности, совершенствование методологии организации фермерских хозяйств в специальных землеустроительных проектах.

